

OLIIY TA'LIMDA O'ZBEK XALQ CHOLG'U IJROCHILIGINI O'QITISH

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i01.003>

Baxtiyar Mirzamaxmudovich Ergashbaev
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida o'zbek xalq cholg'u ijrochiligini o'qitish jarayonining nazariy-metodik asoslari tahlil qilinadi. Unda milliy cholg'u ijrochiligining ta'lim jarayonidagi o'rni, uning talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'qitish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada an'anaviy ijrochilik maktablari va innovatsion ta'lim texnologiyalarining integratsiyasi, ijrochilik mahoratini rivojlantirishda individual va kompetensiyaviy yondashuvlarning samaradorligi ilmiy asosda tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: xalq cholg'ulari, ijrochilik san'ati, musiqa ta'limi, kasbiy kompetensiya, ijrochilik mahorati, an'anaviy ijrochilik maktabi

TEACHING PERFORMANCE ON UZBEK FOLK INSTRUMENTS IN HIGHER EDUCATION

Bakhtiyor Mirzamakhmudovich Ergashbaev
Andijan State University

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological foundations of teaching performance on Uzbek folk instruments in higher education institutions. It highlights the role of national instrumental performance in the educational process, its importance in developing students' professional competencies, and the mechanisms of instruction based on modern pedagogical approaches. In addition, the article provides a scientific analysis of the integration of traditional performance schools with innovative educational technologies, as well as the effectiveness of individual and competency-based approaches in developing performance skills.

Keywords: folk instruments, performance art, music education, professional competence, performance skills, traditional performance school

Kirish

Har bir xalqning ma'naviy qiyofasi, tarixiy xotirasi va estetik qarashlari uning musiqiy madaniyatida, ayniqsa, xalq cholg'u ijrochiligi an'alarida mujassam bo'ladi. O'zbek xalq cholg'ulari asrlar davomida milliy tafakkur, badiiy did va ijodiy

ruhni shakllantirib kelgan bebaho ma'naviy meros sifatida bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Bu merosni nafaqat saqlash, balki zamonaviy ta'lim talablari asosida rivojlantirish masalasi oliy ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Bugungi globallashuv va raqamli madaniyat sharoitida yosh avlodning musiqiy didi, ijrochilik qarashlari va estetik mezonlari tubdan o'zgarib bormoqda. Aynan shunday jarayonda oliy ta'lim muassasalarida o'zbek xalq cholg'u ijrochiligini o'qitish faqat texnik mahoratni shakllantirish bilangina cheklanmasdan, balki talabalarda milliy musiqiy tafakkur, tarixiy xotira va madaniy identifikatsiyani mustahkamlashga xizmat qilishi lozim. Zero, bo'lajak ijrochi va musiqa o'qituvchisi nafaqat cholg'uni puxta egallagan mutaxassis, balki milliy musiqa madaniyatining targ'ibotchisi sifatida shakllanishi zarur.

Oliy ta'lim jarayonida o'zbek xalq cholg'u ijrochiligini o'qitish masalasi o'zida pedagogik, san'atshunoslik va madaniy yondashuvlarning uzviy uyg'unligini talab etadi. An'anaviy ijrochilik maktablari tajribasini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyalash, ta'lim jarayonida individual va kompetensiyaviy yondashuvlardan foydalanish bugungi kunda dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, ijrochilik mahoratini shakllantirishda talabani ijodiy mustaqilligini qo'llab-quvvatlash, sahnaviy madaniyatini rivojlantirish va badiiy tafakkurini kengaytirish masalalari alohida e'tibor talab qiladi. Shu bois, mazkur tadqiqot oliy ta'limda o'zbek xalq cholg'u ijrochiligini o'qitishning nazariy-metodik asoslarini chuqur tahlil qilish, mavjud pedagogik tajribalarni umumlashtirish hamda ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va xulosalarni ilgari surishni maqsad qiladi. Tadqiqot natijalari milliy musiqa merosini zamonaviy ta'lim muhiti bilan uyg'unlashtirish, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbek musiqashunos olimlarining ijodi va asarlarini tahlili

O'zbek musiqashunoslik fani milliy musiqa merosini ilmiy jihatdan o'rganish, tizimlashtirish va nazariy asoslashda muhim o'rin egallaydi. Ushbu fan shakllanishida va rivojlanishida bir qator yirik olimlarning ilmiy izlanishlari, fundamental asarlari hamda amaliy faoliyati muhim ahamiyat kasb etgan. Ularning tadqiqotlari o'zbek xalq cholg'u ijrochiligi, maqom san'ati, folklor musiqasi va musiqiy ta'lim masalalarini qamrab olgan holda, bugungi zamonaviy musiqa ta'limi uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbek musiqashunosligining asoschilaridan biri bo'lgan Abdurauf Fitrat o'zining "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" mazmunidagi ilmiy qarashlari bilan milliy musiqa tafakkurining shakllanishiga katta hissa qo'shgan [1]. Fitrat musiqani xalqning ijtimoiy-ma'naviy hayoti bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin

qilib, cholgʻu ijrochiligi va maqom sanʼatini milliy oʻzlikni anglash vositasi sifatida baholaydi. Uning qarashlari bugungi kunda ham oʻzbek xalq cholgʻu ijrochiligini oʻqitishda gʻoyaviy-metodik asos boʻlib xizmat qilmoqda.

Akademik Yunus Rajabiy ijodi esa oʻzbek mumtoz musiqa merosini amaliy va nazariy jihatdan tiklash, notalashtirish va ilmiy muomalaga kiritishda beqiyos ahamiyatga ega [2]. U tomonidan yozib olingan va tizimlashtirilgan "Shashmaqom" turkumlari, shuningdek, xalq cholgʻu ijrochiligiga oid ilmiy-amaliy qarashlar oliy taʼlimda ijrochilik fanlarini oʻqitishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi [3]. Rajabiy asarlarida ijrochilik anʼanalarining ustoz-shogirdlik tamoyiliga asoslanganligi alohida taʼkidlanadi.

Musiqashunos olim Isʼhoq Rajabov oʻz tadqiqotlarida oʻzbek xalq musiqasining lad-intonatsion tuzilishi, ritmik xususiyatlari va cholgʻu ijrochiligi uslublarini chuqur ilmiy tahlil qilgan [4]. Uning asarlari xalq cholgʻularida ijro texnikasini shakllantirish, talabalarda musiqiy tafakkurni rivojlantirish jarayonida muhim nazariy manba boʻlib xizmat qiladi.

Shuningdek, Turgʻun Alimatov va Otanazar Matyoqubov kabi olimlarning ilmiy izlanishlari maqom va xalq cholgʻu ijrochiligining tarixiy ildizlari, janr xususiyatlari hamda ijro uslublarini tadqiq etishga qaratilgan [8]. Ularning asarlarida musiqiy merosni taʼlim jarayoniga tatbiq etish, yosh ijrochilarda milliy musiqaga hurmat va masʼuliyat tuygʻusini shakllantirish masalalari keng yoritilgan.

Zamonaviy oʻzbek musiqashunosligida esa ilmiy tadqiqotlar koʻproq pedagogik yoʻnalishga burilib, xalq cholgʻu ijrochiligini oʻqitishning metodik asoslari, kompetensiyaviy yondashuv, ijrochilik mahoratini rivojlantirish mexanizmlarini tahlil qilishga qaratilmoqda. Bu jarayonda milliy anʼanalarni saqlagan holda, zamonaviy taʼlim texnologiyalarini qoʻllash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Oʻzbek musiqashunos olimlarining ilmiy merosi oliy taʼlimda oʻzbek xalq cholgʻu ijrochiligini oʻqitish jarayonini nazariy jihatdan boyitibgina qolmay, balki uning mazmun-mohiyatini chuqurlashtirish, taʼlim samaradorligini oshirish va milliy musiqa merosini kelajak avlodga yetkazishda muhim ilmiy asos boʻlib xizmat qiladi.

Muhokama

Oliy taʼlim tizimida oʻzbek xalq cholgʻu ijrochiligini oʻqitish masalasi bugungi kunda nafaqat musiqa taʼlimining tarkibiy qismi, balki milliy madaniy identifikatsiyani shakllantirishning muhim pedagogik vositasi sifatida namoyon boʻlmoqda. Tadqiqot jarayonida aniqlangan natijalar shuni koʻrsatadiki, xalq cholgʻu ijrochiligini oʻqitish jarayoni faqat texnik ijro koʻnikmalarini egallash bilan cheklanib qolmasdan, balki talabalarning badiiy tafakkuri, estetik didi va ijodiy mustaqilligini rivojlantirishga xizmat qilishi zarur.

Muhokama etilayotgan muammolardan biri - anʼanaviy ustoz-shogird maktabi bilan zamonaviy oliy taʼlim tizimi oʻrtasidagi nisbat masalasidir. Xalq cholgʻu

ijrochiligida tarixan ogʻzaki anʼana, amaliy koʻrsatma va bevosita ijrochilik tajribasiga tayangan taʼlim ustuvor boʻlib kelgan. Zamonaviy oliy taʼlim sharoitida esa mazkur tajribani ilmiy-metodik asoslar bilan boyitish, notalashtirish, tahliliy yondashuvlar orqali talabalarning musiqiy tafakkurini kengaytirish ehtiyoji kuchaymoqda. Bu ikki yondashuvning uygʻunlashuvi taʼlim samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, oʻzbek xalq cholgʻu ijrochiligini oʻqitishda kompetensiyaviy va individual yondashuvlarni qoʻllash talabalarning ijrochilik salohiyatini ochishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi. Har bir cholgʻuning oʻziga xos texnik imkoniyatlari, ijro uslublari va badiiy ifoda vositalari mavjud boʻlib, ularni umumlashtirilgan metodlar orqali emas, balki talabaning shaxsiy imkoniyatlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda oʻrgatish yuqori natija beradi. Ayniqsa, mustaqil mashgʻulotlarni ilmiy-metodik yoʻnaltirish talabalarning masʼuliyati va ijodiy faolligini oshiradi.

Shu bilan birga, muhokama jarayonida taʼlim mazmunini yangilash masalasi ham alohida eʼtiborni talab etadi. Oʻquv dasturlarida xalq cholgʻu ijrochiligiga oid tarixiy, nazariy va amaliy bilimlarning uzviyligi har doim ham yetarli darajada taʼminlanmayotgani kuzatiladi. Bu esa ijrochilik faoliyatining baʼzan faqat reproduktiv xarakter kasb etishiga olib keladi. Holbuki, ijro sanʼati talabaning tahliliy fikrlashi, improvizatsiya qobiliyati va badiiy talqinini rivojlantirish bilan chambarchas bogʻliqdir.

Muhokama natijalari shuni koʻrsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar - audio-video tahlil, raqamli notalar, multimedaviy taqdimotlar va interaktiv mashgʻulotlardan foydalanish xalq cholgʻu ijrochiligini oʻqitish jarayonida muhim didaktik vosita boʻlib xizmat qilmoqda. Biroq bu texnologiyalar anʼanaviy ijrochilik ruhini soʻndirmasdan, aksincha, uni chuqurroq anglash va ongli oʻzlashtirishga xizmat qilishi lozim. Aks holda, texnologiya maqsad emas, balki jarayonning tashqi unsuri boʻlib qolish xavfi mavjud.

Xulosa qilib aytganda, muhokama qilingan masalalar oliy taʼlimda oʻzbek xalq cholgʻu ijrochiligini oʻqitish jarayoni kompleks, koʻp qirrali pedagogik hodisa ekanligini tasdiqlaydi. Anʼanaviy va innovatsion yondashuvlarning uygʻunligi, taʼlim jarayonining shaxsga yoʻnaltirilganligi hamda milliy musiqiy merosga tayanishi mazkur sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar asosida tashkil etilgan taʼlim jarayoni boʻlajak ijrochilarning kasbiy yetukligi va milliy musiqaga sadoqatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitrat A. Oʻzbek klassik musiqasi va uning tarixi. - Toshkent: Fan, 1993. - 128 b.

2. Раджабий Ю. Узбекская классическая музыка (Шашмаком). - Ташкент: Госмузиздат УзССР, 1959. - 312 с.
3. Radjabiy Yu. Shashmakom. T. 1-6. - Tashkent: Gafur Gulyam nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1966-1975.
4. Rajabov I. O'zbek xalq musiqasi lad asoslari. - Toshkent: Fan, 1978. - 180 b.
5. Rajabov I. Xalq musiqasi va ijrochilik an'analari. - Toshkent: O'qituvchi, 1985. - 152 b.
6. Matyoqubov O. Maqomot. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2004. - 240 b.
7. Matyoqubov O. O'zbek maqom san'ati tarixi. - Toshkent: Fan, 2006. - 216 b.